



OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL TA'LIM OLISHNI
RAG'BATLANTIRISH

Karimova Shaxloza Boyquzi qizi

Farg'ona Davlat Universiteti, PhD

shaxlozakarimova@gmail.com

+998932708877

Xalitova Yorqinoy Ilyas qizi

Farg'ona davlat universiteti, talaba

Annotatsiya. *Maqola oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun mustaqil o'qish jarayoning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qiladi. Bu orqali talabaning shaxsiy va akademik rivojlanishiga ta'sirini o'tkazadi. Shuningdek, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish yo'llari hamda talabalarning mustaqil ishlashga bo'lgan motivatsiyasini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *mustaqil ta'lim, oliy ta'lim, motivatsiya, samaradorlik, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, zamonaviy ta'lim tizimi.*

Аннотация. *В статье анализируются положительные и отрицательные стороны процесса самостоятельного обучения студентов, обучающихся в высших учебных заведениях. Через это рассматривается влияние на личностное и академическое развитие студента. Также рассматриваются пути эффективной организации самостоятельного обучения и вопросы повышения мотивации студентов к самостоятельной работе. На основе результатов исследования разрабатываются практические рекомендации.*

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, высшее образование, мотивация, эффективность, креативное мышление, критическое мышление, современная система образования.*

Annotation. *This article analyzes the positive and negative aspects of the process of independent learning among students studying in higher education institutions. It examines its impact on students' personal and academic development. In addition, the ways of effectively organizing independent learning and increasing students' motivation for independent work are discussed. Based on the research results, practical recommendations are developed.*

Keywords: *independent learning, higher education, motivation, effectiveness, creative thinking, critical thinking, modern education system.*

Bugungi tez o'zgarib borayotgan zamonda ta'lim tizimi tobora o'quvchiga yo'naltirilgan shaklga o'tib bormoqda. Zamonaviy ta'lim tizimining muhim jihatlaridan biri bu mustaqil ta'lim olishdir. Mustaqil ta'lim o'quvchilarga o'z bilimlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



olish, mustaqil va tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, u bilim sifatini oshirish va insonni butun umr davomida o'rganishga tayyorlashda muhim ro'l o'ynaydi. Mustaqil ta'lim jarayonida talaba o'qituvchi bergan topshiriqlardan tashqari axborot resurslaridan foydalangan holda qo'shimcha topshiriqlarni bajaradi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Mustaqil ta'limning asosiy mazmuni talabaning faolligi bilan bog'liq va uni ta'lim jarayoning passiv ishtirokchisidan faol subyektga aylantiradi. Talaba mustaqil ravishda bilim izlash orqali o'z qiziqishlari asosida chuqurroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa uning akademik muvaffaqiyati bilan birga shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki bugungi kunda tez o'zgarayotgan axborot zamonida faqatgina tayyor bilimlar yetarli emas, balki ularni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish va qo'llay olish muhim hisolanadi. Shu sababli mustaqil ta'lim talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim omil sifatida qaraladi.

Universitet talabalari uchun mustaqil o'qish ta'lim jarayoning muhim elementi bo'lib, u talabaning bilim olish samaradorligini oshirishda muhim hamiyat kasb etadi. Mustaqil o'qish orqali talabalar o'z bilim doirasini kengaytira oladi, o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydi va yangi ko'nikmalarni shakllantiradi. Birinchidan, mustaqil o'qish talabaning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Talaba berilgan mavzuni o'zi o'rganar ekan, u turli manbalar orqali solishtiradi va o'z xulosasini shakllantiradi. Bu esa tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ikkinchidan, mustaqil o'qish vaqtni samarali boshqarish ko'nikmasini shakllantiradi. Talaba o'z o'qish jarayonini mustaqil rejalashtiradi, muhim vazifalarni belgilaydi hamda belgilangan muddatda vazifalarni bajarishga o'rganadi. Uchinchidan, mustaqil o'qish orqali talabaning o'z-o'zini rivojlantirish darajasi ham oshadi. Bunda o'quv fani mazmuning asosiy ahamiyatga ega ekanligini e'tiborga olgan holda, o'qituvchi tomonidan o'quv materiallarini bayon etishda eksperimental faktlar va ularning fan nazariyasi bilan bog'lanishi hamda qanday tajribalar asosida tasdiqlanishini to'la tushuntirishni talab qiladi⁸³. To'rtinchidan, mustaqil o'qish motivatsiyasini oshiradi. Talaba o'z natijalari uchun javobgarlikni his qiladi va bu uni yanada faolroq o'rganishga undaydi. Bundan tashqari, mustaqil o'qish axborot bilan ko'nikmalarini rivojlantiradi. Pedagogik tomondan qaraganda, zamonaviy axborot jamiyatida raqobatbardosh bo'lish uchun zarur bo'lgan analitik va kritik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi⁸⁴. Zamonaviy axborot manbalaridan foydalanish, kerakli ma'lumotlarni topish, uni tahlil qilish va amaliyotda qo'llash talabaning muhim kompetensiyalaridan biriga aylanadi.

Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning samarali bilim olishini ta'minlash bilan bir qatorda, qiyinchilik va maummolar ham mavjud. Ushbu muammolar talabaning individual xususiyatlari, ta'lim muhiti va tashkiliy omillar bilan bog'liqdir. Ko'plab talabalar mustaqil

⁸³ Odilova Mahfuza. Oliy o'quv yurtlarida talabalarning mustaqil ta'lim jarayonini tashkil qilishda gat texnologiyalaridan foydalanish muammolari, 2022, Vol.6 – P.201-204.

⁸⁴ Ziroat Anvarovna Xolmatova. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish – pedagogik muammo sifatida, 2024, –P.166-168.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ta'lim jarayonida o'z-o'zini boshqarish, vaqtni to'g'ri taqsimlash va o'qish jarayonini rejalashtirishda qiyinchiliklarga duch keladilar, bu esa ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi⁸⁵. Ba'zi talabalar mustaqil fikrlash va tahlil qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular tayyor ma'lumotlarga tayanib qolishgan, bu esa mustaqil o'rganish jarayonini murakkablashtiradi. Umuman olib aytganda, mustaqil ta'lim olish jarayonida uchraydigan qiyinchilik va muammolarni bartaraf etish uchun talabalarda o'z-o'zini boshqarish, motivatsiya va axborot resurslari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega⁸⁶.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta'lim oliy ta'lim tizimida talabalarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Mustaqil ta'limni samarali tashkil etish talabalarning o'z-o'zini boshqarish, mustaqil qaror qabul qilish va uzluksiz o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ta'minlanadi⁸⁷. Bundan tashqari, talabalarning motivatsiyasini oshirish uchun rag'batlantirish tizimini joriy etish, ularning qiziqishlariga mos topshiriqlar berish hamda mustaqil ishlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish zarur. O'qituvchi esa bu jarayonda yo'naltiruvchi va maslahatchi sifatida faol ishtirok etishi lozim. Umuman olganda, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, u talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Odilova Mahfuza. Oliy o'quv yurtlarida talabalarning mustaqil ta'lim jarayonini tashkil qilishda gat texnologiyalaridan foydalanish muammolari // jurnal nomi. 2022, Vol.6 – 201-204 p.
2. Ziroat Anvarovna Xolmatova. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish – pedagogik muammo sifatida // jurnal nomi. 2024, – 166-168 p.
3. Zimmerman B. J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory into practice, 2002, Vol. 41, No. 2. – 64-70 p.
4. Knowles, M. S. Self- directed learning: A guide for learners and teachers // jurnal nomi. – New York: Cambridge Adult Education, 1975. – 130 p.
5. Knowles, M.S. Self-directed learning: A guide for learners and teachers // jurnal nomi. – New York: Cambridge Adult Education, 1975, – 135 p.

⁸⁵ Zimmerman B. J. Becoming a self-regulated learner: An overview// Theory into practice, 2002, Vol. 41, No. 2. – P.64-70.

⁸⁶ Knowles, M. S. Self- directed learning: A guide for learners and teachers. – New York: Cambridge Adult Education, 1975. – P.130.

⁸⁷ Knowles, M.S. Self-directed learning: A guide for learners and teachers. New York: Cambridge Adult Education, 1975, – P.135.